

Date: 13th January-2025

TOSHPO'LAT AHMADNING "ZA'FARON NIDOLAR" DOSTONIDA FITRAT
OBRAZI

Nizomova Kamola Vohid qizi

Buxoro davlat universiteti 1-kurs magistri

Annotasiya: Ushbu maqolada Toshpo'lat Ahmad qalamiga mansub "Za'faron nidolar" dostoni tahliliga to'xtanilgan. Dostondagi Fitrat obrazi va uning o'rni xususida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: lirika, she'riyat, ma'rifatparvar jadidlar, shahidlar xiyoboni, za'faron nidolar, Abdurauf Fitrat.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu- tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, vatanining tarixini bilishni istaydi.

Shu sabab ham biz uzoq o'tmishdagi Amir Temur, Ulug'bek, Navoiylarni, ma'rifatparvar jadidlarimiz Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, millatimiz faxrlari Usmon Nosir, Cho'lpon va boshqa buyuk insonlarni qayta-qayta tilga olib ruhlarini shod etamiz. Ularning jamiyat va xalq uchun ko'rsatgan xizmatlariga tarix guvoh. Ular hali hamon adabiyotimizda sharaflanib qalbimizda milliy iftixor tuyg'usi bilan yashayapti. Bunday fidoyilar haqida yozilgan asarlar juda ham ko'p. Jumladan ana shunday millat buyuklari alqab yozilgan asarlar sirasida vatandoshimiz buxorolik shoir Toshpo'lat Ahmad ijodiga mansub "Za'faron nidolar" dramatik dostonini ko'rishimiz mumkin. Unda jonkuyar istiqloq kurashchilaridan Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Abdulla Avloniy, Usmon Nosir, Cho'lpon, Qodiriy, Fayzulla Xo'jayev, Said Ahroriy, Madaminbek, Qo'chqor bobo va boshqalar tilga olinib, ularga ozodlik va erk timsoli deya ta'rif beriladi. Ular bilan bevosita hujjatlar orqali tarixchi gaplashadi.

Doston sarlavhasiga e'tibor beradigan bo'lsak, muallif nega o'z asarini «Za'faron nidolar» deya atadi? Shoir za'faronlikni aynan qanday ta'rifladi? Oxunjon Safarov asar haqida fikr bildirar ekanlar ushbu dramatik doston sarlavhasiga ham to'xtalib o'tadilar: " anduhlarni behad ifodalaganidan bu hujjatlarning rangi ham za'faron tortgan, binobarin, ular aslida o'sha adolatsiz tuzum tomonidan nohaq qatl etilganlarning za'faron nidolariday aks-sado bermog'i tayin". Shoir bu nidolarning egalari yuqorida nomlari zikr qilingan kishilargina emas, balki nomu nishonsiz ketgan minglab va o'n minglab qatag'onga uchranganlar ekanini ta'kidlash maqsadida tarixchi bilan yana Yosh ovoz, Ayol ovozi, So'lg'in ovoz va umuman ovozlarni ham muloqotga kiritib, shu ramziy obrazlar vositasida qatag'on fojialari ko'lamining naqadar keng bo'lganiga ishora qiladi. Ijodkor za'faron rangiga shu xilda ijtimoiy ma'no yuklaydi.

Dramatik dostonning kompozision qurilishi o'ziga xosdir, o'n qismdan iborat tarzida tuzilgan. Doston syujetini "Tarixchi" va nomlari yuqorida aytib o'tilgan insonlar bilan moziy to'g'risida va ularning hayot yo'llari, boshdan kechirganlari haqidagi



Date: 13th January-2025

suhbatlar tashkil etadi. Voqealar “tarixchi” ning xonaga kirib qo‘lyozmalarni ko‘zdan kechirishi bilan boshlanadi:

Sonsiz “Delo” lardan toshardi faryod,
Qay birin tanlashga lol , hayron edim...
Go‘yo boshim uzra besanoq ruhlar ,
Kezganicha aytardi meni qo‘lga ol...

Shunda tarixchi entikib ularning huzuriga kelganini va so‘zlariga zor ekanligini aytgandan so‘ng buxorolikman deya Fitrat so‘z boshlaydilar:

Yurtdoshingman sening ... kel , so‘zlay kushod,
Baxtni qucholmagan dil yarashlikman.
O‘zi yashagan muhitni , davrni eslar ekan, Fitrat kuyunib shunday deydi:
“Vatanim” deb aytsak , millatchi bo‘ldik,
Panturkist deyishdi Turkim , deb aytsak.
Xullas, xazondayin yonmayin so‘ldik ,
Qovrildik , sovrildik Erkim, deb aytsak...

Asar davomida ana shunday tutqun qalblar Cho‘lpon , Qodiriy , Usmon Nosir , Fayzulla Xo‘ja , Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalar o‘z taqdiralaridan so‘zlashadilar. Ular qatorida Said Ahroriy degan jurnalist va Qo‘chqor bobo ham bor. Said Ahroriy el xizmatidagi jurnalist bo‘lib taqdiri “otuv” so‘zi bilan nihoyalangan bo‘lsa, Qo‘chqor boboning oila tebratishda zarur bo‘lgan ho‘kizi va uch tanob eri uchun “quloq” qilishganligi aytib o‘tilgan. Doston so‘ngida “Shahidlar xiyoboni” to‘g‘risida so‘z boradi. Uning shahidlar ruhi uchun aziz oromgoh , qadamjo sifatida Bo‘zsuv anhuri bo‘yida bunyod etilganini eshitgan ajdodlarimiz buning sababchisini so‘rashadi:

Unda anglat menga ul joy sarkorin ,
Ruhimiz shod etgan qalblar me'morin.

Shoir tarixchi tilidan javob berar ekan , o‘quvchi uning kimligini anglab etadi. O‘zbek xalqi uchun yashagan Islom Karimov va boshqa tarixiy shaxslar, millatimiz faxrlari, xalq iftixorlari doimo yodimizda , tilimizda va yuragimizdalar .

Taniqli adabiyotshunos olim Naim Karimov “Za‘faron nidolar” ni qo‘lyozma paytida o‘qib , shunday yozgan edi: “2001-yildan boshlab 31-avgustning qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni sifatida nishonlanishi adabiyotimizning bugungi namoyondalarining shahidlar haqida go‘zal asarlar yozishini taqozo etmoqda . Toshpo‘lat Ahmadning shu mavzuda olovli qalb yorqin so‘z bilan qalam tebratishi ayni muddaodir. Chamasi , bugungi kunimiz xuddi asarga muhtoj edi. Xuddi shunday asarga ehtiyoj bor edi. Toshpo‘lat Ahmad ana shu ehtiyojni chuqur his etib , hayajonbaxsh doston yozibdiki , uni qutlab , asarni xalqqa tezroq etkazishni joiz deb o‘ylayman”.

Doston tarixiy mavzuda , juda chiroyli ifodalar asosida , sodda va xalqchil so‘zlar bilan yozilgan. Muallif unda tarixiy haqiqatlarni mujassamlashtirib yaxlit umumiy kompozisiya yarata olgan . Ijodkor shahidlar maydonidagi buyuk shaxslarning so‘zlari orqali istiqloq kurashchilarining qanchalik mashaqqatli hayot kechirganligini aytib o‘tadi. O‘qigan har bir o‘quvchi asardagi “tarixchi” obrazi bilan birga moziyga sayr qiladi va hech qanday zerikishsiz ma'naviy hordiq oladi.



Date: 13th January-2025



Buxorolik shoir Samandar Vohidov Toshpo‘lat Ahmadning ushbu dostoni haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: " "Za‘faron nidolar" dramatic dostonini "Fig‘on"ning mantiqiy davomi desak bo‘ladi . Agar Fayzulla Xo‘jaev , Cho‘lpon , Abdulla Qodiriy kabi qatag‘on qurbonlarining nomlari "Fig‘on"da ham tilga olingan bo‘lsa-da , "Za‘faron nidolar"da ularning to‘laqonli obrazlari yaratilgan. Dostonida shoir qahramonlari haqida gapirmaydi , balki ularning dardu alamlarini o‘z tillaridan eshittiradi" .

Dostondagi birgina Fayzulla Xo‘jaev obrazini tahlil qiladigan bo‘lsak , u asarda o‘z diyorini juda sevadigan jonkuyar , ammo qilgan ishlari uchun gunohkor shu o‘rinda o‘z aybiga iqror inson sifatida tasvirlangan . "Tarixchi" tomonidan Fayzulla Xo‘jaevning o‘zbek xalqi taqdirini o‘zgartirib yuborgan harakatlariga nisbatadan "tog‘dayin vazmindir haqni anglamoq" kabi so‘zlar ishlatiladi . Darhaqiqat , u bu qilayotgan ishlari xalqi uchun ezguliklar keltirishiga ishonar edi , lekin CCCR hukumati barchani aldadi , shu qatori Fayzulla Xo‘jaevni ham .

E'tiborimizni tortadigan obrazlardan yana biri bu Cho‘lpon obrazidir. Dostonda shoir tilidan "Ko‘ngil" she'ri keltirilib , bu she'r orqali u o‘z taqdiridan so‘zlaydi . Xuddi shunday "Xalq she'ri"ni eslab Cho‘lpon ommani da'vat qilgan bo‘lsa , urinishlari zoe ketib , nechog‘lik tuhmat bo‘htonlar orasida qolganini aytadi . Doston davomida mana shunday aybsiz aybdorlar qatorida Usmon Nosir , Abdulla Qodiriy ham istiqloлга tikkan umrlari Bo‘zsuv bo‘yida tugaganligini alam bilan so‘zlashadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki , Toshpo‘lat Ahmadning "Za‘faron nidolar" dostoni shoir ijodidagi boshqa dostonlardan o‘zining obrazlar tizimining o‘zgachaligi va tarixiy voqealarning bayon etish usullari bilan ajralib turadi .

ADABIYOTLAR:

1. Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.T.: Sharq 1998.
2. Oxunjon Safarov. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. B.:Durdona 2015.
3. Oxunjon Safarov.Tuyg‘ularda tarix jilosi.T.:Navro‘z 2013.
4. Toshpo‘lat Ahmad. Sajdagoh.dostonlar.T.:Muharrir 2011.
5. Vohidov S. Turfa taqdirlarga ko‘zgu dostonlar. Kitobda: T.Ahmad Sajdagoh. dostonlar Toshkent "Muharrir" 2011.